



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 4**

**2026**

## **HUQUQIY MADANIYAT VA MILLIY G‘OYANING DEMOKRATIK DAVLAT QURISHDAGI AHAMIYATI**

**Karimova Sadoqat Tohirovna**

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti, (PhD), dotsent

### **Annotatsiya**

Mustaqillik huquqiy madaniyatining umumiy madaniyat tizimidagi o‘rni va aloqalarini riqojlantirishda muhim qadam bo‘ldi. Zero milliy va umuminsoniy jihatlarini ochib berishda jamiyat fuqarolarining hayoti murakkab va ziddiyatliligi bilan muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki u eng avvalo shaxs yashayotgan ijtimoiy muhitga bevosita bog‘liqdir va ayni paytda shu ijtimoiy muhit kishilarning huquqiy ehtiyojini, huquqiy munosabatlarini va huquqiy iste‘molini belgilaydi. Bu jarayonda ham jamiyatning huquqiy madaniyati qanchalik darajada yuksak bo‘lsa, mazkur jamiyat kishisining huquqiy ham shunchalik darajada boy va sermazmun bo‘ladi, shaxs barkamolligiga keng imkoniyatlar ochib beradi.

**Kalit so‘zlar:** huquq, jamiyat, madaniyat, umummilliy, huquqiy aktlar, huquqiy ong, guruhlar, nazariya, mentalitet, konstitutsiya, konsepsiya, qonun.

## **ВАЖНОСТЬ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ И НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕИ В ДЕМОКРАТИЧЕСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ СТРОИТЕЛЬСТВЕ**

**Каримова Садокат Тохировна**

Ташкентский институт менеджмента и экономики, PhD, доцент

### **Аннотация**

Независимость стала важным шагом в укреплении места и связей правовой культуры в общей культурной системе. Ведь, раскрывая свои национальные и универсальные аспекты, жизнь граждан общества имеет огромное значение из-за своей сложности и противоречивости. Потому что она в первую очередь напрямую зависит от социальной среды, в которой живет человек, и в то же время эта социальная среда определяет правовые потребности, правовые отношения и правовое потребление людей. В этом процессе, чем выше правовая культура общества, тем богаче и содержательнее будет правовая культура человека в этом обществе, открывая широкие возможности для личностного развития.

**Ключевые слова:** право, общество, культура, национальный, правовые акты, правовое сознание, группы, теория, mentalitet, конституция, концепция, закон.

## **THE IMPORTANCE OF LEGAL CULTURE AND NATIONAL IDEA IN DEMOCRATIC STATE BUILDING**

**Karimova Sadoqat Tohirovna**

Tashkent Institute of Management and Economics, PhD, Associate Professor

### **Abstract**

Independence has become an important step in strengthening the role and connections of legal culture within the overall cultural system. The life of citizens is viewed as a complex and contradictory process closely linked to the social environment. This environment determines individuals' legal needs, legal relations, and legal behavior. The higher the level of legal culture in society, the richer and more meaningful the legal culture of individuals becomes, creating broader opportunities for personal development.

**Keywords:** law, society, culture, national, legal acts, legal consciousness, groups, theory, mentality, constitution, concept, law.

Jamiyatning huquqiy madaniyati yuksak bo'lgan sharoitlarda yashayotgan insonlar har doim Vatan va xalq manfaatini o'ylab, jamiyat taraqqiyoti uchun faoliyat ko'rsatadi. Agar jamiyat madaniy turg'unlikda, inqiroz holatida bo'lsa, mazkur jamiyat kishisining huquqiy saviyasi qashshoq va tuban bo'ladi. Shuning oqibatida shaxs xatti-harakatida salbiy holatlar (korrupsiya, jinoyatchilik, o'g'rilik) keng avj oladi" (Русинов Р.К. Правосознание и правовая культура // Теория государства и права. – М., 2006. [С. 134]).

Shuning uchun ham jamiyatda barqarorlikni saqlash va qonun ustuvorligini ta'minlash uchun, avvalo, aholi huquqiy madaniyatini shakllantirish talab etiladi.

R.K. Rusinov fikricha, "Huquqiy madaniyat – jamiyatning ijtimoiy, ma'naviy, siyosiy va iqtisodiy qurilmasiga bog'liq bo'lgan jamiyat huquqiy hayotining sifatli holati bo'lib, u huquqiy faoliyat, huquqiy aktlar, huquqiy ong, umuman, subyektning, ya'ni inson, turli guruhlar, butun aholining huquqiy rivojlanganlik darajasida ifodalanadi", degan xulosaga keladi. Mazkur fikrda huquqiy madaniyatning umumilmiy jihatlari o'z ifodasini topgan. Ammo M.I. Abdullayev esa: "Huquqiy madaniyat o'zida huquqiy nazariya va amaliyot yutuqlarini qamrab oladi" (Абдуллаев М.И. Правосознание и правовая культура. – Т.; СПб., 2004. [С. 88]), deb yozadi. Shunga binoan, huquqiy madaniyat asoslari jamiyat huquqiy hayotining sifatli mazmunini o'zida aks ettiradi, huquqiy ong holatini ko'rsatadi, o'ziga barcha huquqiy qadriyatlarni ham qamrab oladi.

Aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish – ularning ongi orqali huquqiy tizimning mohiyatini bilish, uning maqsadini idrok etish va huquqiy jarayonda erkin ishtirok etishga tayyor bo'lishini anglatadi. Endi masalani yanada aniqroq tahlil etish uchun ularning o'zaro aloqadorlik jihatlari to'xtalamiz. Bu, birinchidan, har ikkala tushunchaning dastlab davlat siyosati bilan aloqadorligida ko'rinadi; ikkinchidan, milliy g'oya va aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish tushunchalari huquqiy maqsadga erishishning muhim omili ekanligidir; uchinchidan, milliy g'oya ham, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish ham huquqiy tizimda individuallik hamda umumiylik xususiyatiga ega; to'rtinchidan, ularning har ikkisi demokratik davlat qurish yo'lidagi asosiy vazifalardandir; beshinchidan, har ikki tushunchaning ro'yobga chiqishi uzoq muddatga asoslanishi, biroq ularning o'zgaruvchanligida ko'rinadi. L.A. Morozova "Huquqiy madaniyat – jamiyat huquqiy hayoti holatidir" (Морозова Л.А. Теория государства и права: учебник. – М.: Юрист, 2004. [С. 363]) degan xulosaga keladi.

Y.V. Agranovskiy ham "Huquqiy xatti-harakatni belgilovchi – qarashlar, baholar, fikrlar tizimi" (Аграновская Й.В. Правовая культура и обеспечение прав личности. – М.: Прогресс, 1988. [С. 18]) deb biladi. A.V. Malko va S.A. Komarovlar: "Huquqiy madaniyat modellashtirilgan g'oyalar, his-tuyg'ular, tasavvurlar umumiyligi, huquq jabhasida shaxs ichki ehtiyoji va anglangan zaruratidir, o'z navbatida ular huquqiy ongga asoslanadi" (Комаров С.А., Малко А.В. Теория государства и права. – М., 2004. [С. 298]) deb yozadilar.

M.V. Bondarenko huquqiy madaniyatning tuzilmaviy elementlariga alohida e'tibor qaratgan holda: "Vaziyat pozitiv huquqiy realligini tashkil qiluvchi xarakter, daraja, huquq va huquqiy muassasalar rivojlanganlik darajasi, qonunchilik va huquqiy tartibot holati, huquqiy ongning rivojlanganlik darajasi va huquqiy me'yoriy xatti-harakat barqarorligi darajasidir. Huquqiy davlat va huquqiy madaniyat o'zaro organik bog'liqlikka ega, demokratik fuqarolik jamiyati mavjudligi huquqiy madaniyat va huquqiy davlat uchun zarur shartdir" (Бондаренко М.В. Правовая культура и правомерное поведение в современном российском обществе: Дис. канд. юрид. наук. – М., 2002. [159 с.]) deydi. Mazkur pozitsiyani V.P. Salnikov ham qo'llab-quvvatlaydi (Салников В.П. Правовая культура // Актуальные проблемы теории права. – Уфа, 1995. [С. 150–151]).

A.S. Ibrayeva esa huquqiy davlat va huquqiy madaniyat rivojini mentalitetga bog'lab tushuntirib o'tadi. Uning fikricha, "Huquqiy davlatni qurish va huquqiy madaniyat sohasida yangi

huquqiy baza va iqtisodiy asosni yaratishgagina emas, balki jamiyat mentalitetini o'zgartirishga ham bog'liq. Aynan eski mentalitet amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini pasaytirmoqda" (Ибраева А.С. Правовая культура Казахстана: проблемы формирования, факторы развития. – Алматы, 2004. [С. 71]). O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mohiyatan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanishning eng yuqori darajasini belgilab berishga xizmat qiladi.

Xususan, "Huquqiy madaniyatning komponentlarini aniqlashga qaratilgan ishlar ro'xatini yana davom ettirish mumkin" (Глухарева Л.И. Права человека в системе теории права и государства: общетеоретические, философско-правовые и методологические проблемы: Дис... д-ра юрид. наук. – М., 2004. [С. 417]). Ammo bu borada yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud. Natijada huquqiy madaniyatni komponentlarga ajratishga intilib, ularning integratsion xususiyatlarini ochib berishga, yondashuvlarni sistemalashtirishga, tartibga solishga, o'zaro aloqasini va bir-biriga munosabatini ko'rib chiqishga urinmaydilar.

Huquqiy-demokratik jamiyatda qonunni yaxshi bilish har bir fuqaro uchun hayotiy ehtiyojga aylandi. Shu bois bu boradagi bilimdonlikni inson o'zi uchun qandaydir ustunlik beradigan imtiyoz deb tushunmasligi va shundan foydalanib, faqat shaxsiy manfaatlarini amalga oshirishga urinmasligi kerak. Bir tasavvur qilib ko'raylik: agar inson "men qonunni bilaman, o'z manfaatlarimni qonun asosida himoya qila olaman", deb faqat o'z foydasini ko'zlab harakat qiladigan bo'lsa, uni huquqiy jihatdan madaniyatli odam deb bo'lmaydi. Chunki u qonunni bilishini pesh qilib, insoniylikni unutilib qo'ygan bo'ladi. Chunki qonunlarda insonning huquq va erkinliklaridan tashqari uning jamiyat va davlat, o'ziga o'xshagan boshqa fuqarolar oldidagi burchi va majburiyati ham qat'iy belgilab qo'yiladi. Shuni unutilmaslik kerakki, huquqiy madaniyatli odam qonunlardan qo'rqqani uchun emas, balki qonunni hurmat qilgani, uning timsolida xalq xohish-irodasini ko'rganini uchun qonun asosida yashashni maqsad qiladi.

Qayd etilgan mulohazalar demokratik-huquqiy davlatda fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish muhim ahamiyatga egaligini anglatadi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, shaxsning huquqiy ongi yuksak, bilimi yetarli bo'lishi, lekin unda huquqiy madaniyat yetishmasligi, u fuqaro sifatida o'z xalqi va Vatani oldidagi burch va mas'uliyatini teran anglamasligi mumkin. Shuning uchun ham fuqarolar, ayniqsa, yoshlarda huquqiy madaniyatni yuksaltirish mafkuraviy tarbiyaning muhim shartidir. Modomiki, har qanday madaniyat yuksak ong va tafakkurga asoslanar ekan, huquqiy madaniyat ham odamlarda, avvalo, huquqiy tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishni talab etadi.

O'zbek xalqi tajribasi va boshqa mamlakatlar tajribasini umumlashtirib, ta'lim va qonunchilik bazasini shakllantirib, O'zbekiston huquqiy madaniyatining milliy konsepsiyasini yaratish mumkin. Shu ma'noda F. Musayev: "Huquqiy madaniyatning yana bir jihati shuki, u qonunchilik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, qonuniylikni mustahkamlash jarayoniga kirib boradi, qonuniylikning zaruriy holati sifatida namoyon bo'ladi" (Musayev F. Demokratik jamiyat qurishning falsafiy-huquqiy asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2007. [B. 258]) deb yozadi.

Huquqiy madaniyat qonunlarni qay darajada bilish bilangina emas, balki ularga rioya qilish, uni qo'llash va hurmat bilan munosabatda bo'lishda ham namoyon bo'ladi. Shu boisdan ham biz Respublikamiz Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 1997-yil 25-iyundagi "Huquqiy madaniyatni yaxshilash, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o'rganish ishini yaxshilash haqida"gi Farmoni va 1997-yil 29-avgustdagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish to'g'risida"gi Milliy dastur qabul qilinganligini anglagan holda samarali faoliyat olib borishimiz zarurdir. Darhaqiqat, Sharqning buyuk mutafakkiri Forobiy o'z davrida huquqiy tarbiyani yaxshilash bilan bog'liq ilg'or usullarni bayon qilib, jumladan Aflotun nomidan shunday degan edi: "Eng mushkul ish qonunni joriy qilishdir. Odam o'z mavqeini qonunlarga muvofiq ravishda qurishi lozim... Xalq qonunlarga ehtiyoj sezishi va ularni chuqur o'rganishi zarur, chunki u keyinchalik xalqning o'ziga foyda keltiradi. Aks holda, qonundan ko'zlangan maqsadga erishib

bo‘lmaydi” (Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. [B. 18]).

Jadidlar boshchiligida “Taraqqiyparvarlar”, “Yosh buxoroliklar” va “Yosh xivaliklar” nomli siyosiy firqalar (partiyalar) tuzildi. Jadidlar milliy g‘oyasida quyidagi uchta masala asosiy maqsad qilingan:

1. Xalqimizni dunyoning ma’rifatli millatlari darajasiga ko‘tarish;
2. Turkistonda milliy-demokratik davlat qurish;
3. Taraqqiyot va rivojlanishga faqat tinchlik yo‘li bilan, parlament orqali erishish.

Biroq o‘tgan asr boshida Sovet hokimiyatining o‘rnatilishi va sotsialistik sistemaning qaror topishi oqibatida barcha hurfikrli shaxslar va ilg‘or demokratik ruhdagi tashkilotlar qatag‘on girdobiga tushdi. Davlat va jamiyatning barcha sohalarida yakka siyosiy kuch – kommunistik partiya monopoliyasi o‘rnatildi. Jamiyatda siyosiy-huquqiy madaniyat juda pasayib ketdi. Sovet hokimiyatiga, kommunistik mafkuraga oppozitsiya u yoqda tursin, ularga qarshi ozgina noo‘rin gapirganlar ham “xalq dushmani” sifatida qatag‘on qilingani tarixdan ma’lum. Huquqiy madaniyat va milliy g‘oyaning jamiyat va shaxs hayotiga ta’siri muammolari keyingi yillarda olimlarimiz tomonidan keng ko‘lamda tadqiq etilmoqda. Bu borada ilmiy-nazariy ahamiyatga ega monografiyalar, risolalar, to‘plamlar chop etildi, doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari yoqlandi. Ammo bizning nazarimizda, ijtimoiy voqelik sifatida huquqiy madaniyat va milliy g‘oyaning demokratik davlat qurishdagi ahamiyati hozirgacha keng va maxsus falsafiy tahlil qilinmagan. Shu sababli ilmiy-nazariy va uslubiy adabiyotlarda huquqiy madaniyat va milliy g‘oyaning demokratik davlat qurishdagi ahamiyati masalasini har tomonlama va mukammal falsafiy tahlil etish bugungi kunning muhim vazifasi hisoblanadi. Xususan, huquqiy madaniyatning mazmuni, mohiyati, xususiyatlari va ko‘rinishlarini o‘rganish doimo faylasuflar, huquqshunoslar, madaniyatshunoslar, siyosatshunoslar tadqiqotlarida katta o‘rin olib kelgan. Ularda ko‘proq huquqiy madaniyatning tarixiy tahliliga, huquqiy ong va huquqiy tafakkurning o‘zaro bog‘liqligiga keng e’tibor beriladi.

Huquqiy madaniyatni insonning haq-huquqlari borasidagi aqliy, hissiy va jismoniy faoliyatining jamlangan shakli sifatida qarash mumkin. Ushbu ta’rifda huquqiy madaniyatning eng muhim jihatlari dialektik aloqadorlikda aks ettirilgan. Shu ma’noda A.P. Semitko: “Huquqiy madaniyat – jamiyat huquqiy hayotining sifatli holatidir” (Семитко А.П. Правовая культура социалистического общества: сущность, противоречия, прогресс. – Свердловск, 1990. [С. 14–19]) deb yozadi. Shu jihatdan olib qaraganda, huquqiy madaniyat murakkab tuzilma bo‘lib, unga qandaydir hamma narsani qamrab oladigan va shu bilan bir vaqtda ixcham ta’rif berish qiyin. Chunki u subyektiv faoliyatning natijasi, obyektiv asos, shu bilan birga, doimiy dinamik harakatda bo‘ladigan hodisadir. Shuning uchun ham S.S. Alekseyev yozishicha: “Huquqiy madaniyat – bu jamiyatdagi ‘huquqiy ishlar’ning umumiy holatidir, u huquqning boshqaruv sifatleri bilan erishgan yutuqlari darajasida, to‘plangan huquqiy qadriyatlar, ma’naviy madaniyatga, huquqiy progressga taalluqlidir” (Алексеев С.С. Теория права. – М.: Издательство БЕК, 1995. [С. 208]).

Bugungi kunda shaxsning huquqiy madaniyati, inson huquqlariga rioya qilishi, demokratik o‘zgarishlarga nisbatan moyilligi jamiyatda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish bo‘yicha belgilangan maqsadlarga erishishning eng muhim omillari hisoblanadi. Xususan, “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi to‘g‘risida”gi qonunning ishlab chiqilishi yosh avlod huquqiy madaniyatini shakllantirishda, qabul qilingan qonunlarning o‘ziga xos mazmun-mohiyatini fuqarolar ongida rivojlantirishda, o‘quv yurtlarida huquqiy bilimlarni anglashda, yuridik adabiyotlar nashrini ko‘paytirishda, shuningdek, fuqarolarimizning huquqiy yordam olishlarida muhim rol o‘ynadi.

Millatlararo munosabatlarni huquqiy tartibga solish sohasida xorijiy tajribani o‘rganish va tahlil qilish natijasida qonun hujjatlarini takomillashtirish bo‘yicha “40 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat – 2 ta qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 9 ta farmoni va 8 ta qarori,

Vazirlar Mahkamasining 20 ta qarori, Oliy Majlisning 3 ta qonuni” (Toshev A.B. O‘zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik. – Toshkent: Tasvir, 2022. [B. 7]) qabul qilindi. Bugungi kunda respublikamizda aholiga huquqiy xizmatlar ko‘rsatilishini yaxshilashga, huquqiy ta‘lim va tarbiyaning usullari hamda vositalarini takomillashtirishga qaratilgan tadbirlar majmui amalga oshirilmoqda. Bu harakatlar o‘z samarasini bermoqda. Shuningdek, demokratik institutlar, siyosiy partiyalar va ijtimoiy harakatlar faoliyatini kuchaytirish uchun qulay huquqiy shart-sharoit yaratilmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tomonidan xalqimizning huquqiy madaniyatini oshirishga alohida e‘tibor qaratilib, endigi vazifa davlat, jamiyat va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarni uyg‘unlashtirish ekanligi ta‘kidlab o‘tiladi. Bu vazifani huquqiy ongni shakllantirishning o‘zi bilangina amalga oshirib bo‘lmaydi, shuning uchun ham uni ro‘yobga chiqarish uchun huquqiy madaniyat ham zarur.

Huquqiy madaniyatni shakllantirishning shartlari va omillari, bizning fikrimizcha, quyidagilardan iborat:

**Birinchi**dan, “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi to‘g‘risida”gi Qaror asosida aholi o‘rtasida tadbirlarni kuchaytirish, yoshlarning turli qatlamlari uchun yuridik va huquqiy maslahat berish tizimini yanada rivojlantirish, huquqiy ta‘lim ishiga huquqni muhofaza qiluvchi organlarni, mutaxassislarini va olimlarni kengroq jalb etishga ko‘proq e‘tibor qaratish zarur. Shuningdek, oddiy aholi jamiyatdagi huquqiy tizimni teran tushunib yetishi hamda o‘zlarining hayotiy muammolarini hal qilishning yo‘llari, vosita va usullarini qidirib topishlari, xususan, fuqarolarning huquqiy madaniyatiga oid bilimlarini shakllantirib borish lozim.

**Ikkinchi**dan, yuksak darajadagi huquqiy va kasbiy madaniyatga, ijodiy va ijtimoiy imkoniyatlarga ega yosh avlodni yetishtirib borish zarur. Buning uchun aholi, xususan yosh avlod ham Prezident imzolaydigan farmonlar, Oliy Majlis qabul qiladigan qonunlar hamda hukumat, vazirliklar, idoralar, mahalliy idoralar chiqaradigan qarorlardan o‘z vaqtida xabardor bo‘lib borishi kerak. Shuning uchun ham ana shu farmon, qonun va qarorlarni amalga oshirish ishiga imkon boricha barchani jalb qilish darkor.

**Uchinchi**dan, milliy qonunchilikni shakllantirishda ajdodlarimizdan meros bo‘lib kelgan ijtimoiy qoidalarga ko‘proq amal qilishimiz kerak.

**To‘rtinchi**dan, hozirgi kunda aholining huquqiy madaniyatini yanada rivojlantirish, mamlakat fuqarolarini qonunlarga to‘laqonli amal qilish ruhida tarbiyalash jamiyatni shakllantirishning bosh maqsadigina bo‘lib qolmasdan, balki uning vositasi va eng muhim sharti hamdir. Toki huquqiy madaniyat jamiyatga singmas ekan, toki odamlar huquqni muomala vositasi sifatida qo‘llamas ekan, bunday jamiyatning yanada taraqqiy etishini tasavvur qilib bo‘lmaydi.

**Oltinchi**dan, yoshlarda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bir necha omillarga bog‘liq. Bular huquqiy ong, huquqiy ta‘lim va huquqiy tarbiyadir. Yoshlar mavjud huquqiy axborotlardan maktabda, oilada, mahallada keng xabardor bo‘lishi uchun barcha imkoniyatlardan foydalanish lozim.

**Yettinchi**dan, davlatning rivojlanishi va o‘tkazilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati yoshlarning huquqiy ongi darajasiga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Bu jarayonni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1997-yil 29-avgustda “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi to‘g‘risida”gi Qarorni qabul qilganligini aytish mumkin. Huquqiy savodxonlikda, qonunlarni himoya qilishda, avvalo, biz kattalar yosh avlodga ibrat ko‘rsatishimiz shart.

**To‘qqizinchi**dan, huquqiy ong, huquqiy tarbiya, huquqiy madaniyatni qaror toptirish uzluksizlikka asoslangan bo‘lishi lozim, ya‘ni bolalikdan oilada, maktabgacha tarbiya muassasalarida axloqiy normalar bilan birga ba‘zi huquqiy atamalar to‘g‘risida ham tushunchalar berib borish zarur.

Har xil turdagi ijtimoiy ong mavjud, bular – siyosiy, axloqiy, diniy, huquqiy va hokazo. Huquqiy ong huquqiy madaniyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Har bir shaxsning huquqiy ongi

uning qonun normalariga munosabatidan, ularni qabul qilgan xislatlaridan, o'rnatilgan qonunni qo'llash, unga rioya qilish tushunchalaridan kelib chiqadi. Huquqiy ong – shaxslar tomonidan davlat organlari orqali qabul qilingan qonun hujjatlarini anglash, ularga rioya etish, ulardan ongli ravishda huquqiy munosabatga kirish jarayonida foydalanish qobiliyatidir, desak ham bo'ladi. Har bir shaxs u yoki bu huquqiy munosabatga kirar ekan, ongli ravishda uning oqibatini biladi. U ongli ravishda bu munosabatlarni amalga oshiradi. Agar huquqiy ong bilan huquqiy madaniyat bir xil ta'sir kuchiga ega bo'lsa, huquqbuzarlik, qonunga rioya qilmaslik yoki boshqa nojo'ya harakat amalga oshmaydi. Lekin ong yetarli darajada qonuniy hujjatlar ma'nosini qabul qilsa-da, shaxsda huquqiy madaniyat past bo'lsa, salbiy oqibat ro'y beradi.

Jamiyatda huquqiy madaniyatning qay darajada rivojlanganligiga qarab uning huquqiy tizimi qanchalik mukammal tashkil qilinganligiga baho berish mumkin. Huquqiy madaniyat insoniyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida olgan huquqiy tajribasi bo'lib, u bir joyda qotib turmaydi, doimo o'sish va o'zgarishda bo'ladi. Jamiyat hayotida komil insonlarni shakllantirishda huquqiy bilimlar beqiyos muhim ekanligini aytish lozim. Hozirgi vaqtda jamiyatda yashovchi shaxslarning huquqiy ongi qay darajada? Shov-shuvga sabab bo'ladigan mashhurlar haqidagi mish-mishlarni eshitishdan, romantik seriallarni ko'rishdan va o'zga kishilar hayoti to'g'risidagi oxiri yo'q hikoyalarni o'qishdan tolmayapmiz. Bundan bizga biror naf qolyaptimi? Bu bir tomondan yaxshi, lekin bular huquqiy ongimizni shakllantirishga ta'sir ko'rsatmaydi. Bu holat insonni tor bir qobiqqa o'rab qo'yadi. Natijada insonda jamiyatdagi o'zgarishlar (huquq)ga nisbatan befarqlik kelib chiqadi. Hozirda bir kishini to'xtatib, "huquq nima?" deb so'rasangiz, qisqa qilib "o'z haq-huquqlarini bilish", deb javob beradi. Shu bilan birga, jamiyat va davlat hayotidagi yangilanish va o'zgarishlarga (yangi qonunlar yaratish) o'z fikrini bildirib, xolisona baho berishga qiziqish katta emas. Bu borada faollikka erishish uchun kishilarga, avvalo, ularning huquqlarini hamda huquqiy huquqlarni tushuntirib, buni hayot tajribasidan ko'rsatib o'tish kerak. Chunki huquqiy va huquqiy munosabatlar abstraktlikni (mavhumlikni) inkor etib, aniq voqelikka tayanadi.

Huquqiy madaniyat tarbiyasi murakkab jarayon bo'lib, inson tarbiyasi bilan bog'liq bir necha yo'nalishlarni qamrab oladi. Masalan, insonning ma'naviy, ruhiy, axloqiy, jismoniy, madaniy tarbiyasi – hammasi oxir-oqibatda huquqiy madaniyatning shakllanishiga xizmat qiladi. Fikrimizcha, davlatning oqilona siyosatiga ko'ra huquqiy madaniyatga ega va qonunga itoatkor fuqarolarni tarbiyalash eng asosiy ko'rsatkichdir. Huquqiy madaniyat ma'naviy-axloqiy, huquqiy qadriyatlar tizimi sifatida huquqiy holat rivojining erishilgan darajasida, me'yoriy-huquqiy hujjatlarda va nihoyat huquqiy ongda o'z ifodasini topadi. Sanab o'tilgan mazkur omillarga muvofiq ravishda mavjud qonunlarga itoat etuvchi shaxslarning hayot tarzi shakllanadi, shunga uzviy bog'liq. Binobarin, mohiyat e'tiboriga ko'ra, huquqiy madaniyat – bu jamiyat huquqiy ongi yuksak darajasining o'ziga xos belgisi, ko'rsatkichidir. Shunga ko'ra, bugun respublikamizda qaror topayotgan yangicha huquqiy madaniyat O'zbekistonning jahon xalqlari ma'rifatlashgan oilasiga kirib, unda o'z ma'naviyati va ma'rifati hamda tarixiy salohiyatiga munosib ravishda o'z o'rnini egallashiga yordam beruvchi huquqiy qadriyatni ham ifodalaydi.

Biroq huquqiy madaniyat birdaniga, qisqa muddatda, o'z-o'zidan shakllanib qolaveradigan hodisa emas. Uning shakllanishi har bir ijtimoiy tuzumga xos rivojlanish, shart-sharoit, siyosat tufayli o'ziga xos kechishi tabiiy bo'lib, buni respublikamizning mustaqillikdan keyingi yillardagi taraqqiyot yo'li ham ko'rsatib turibdi. Bu o'rinda sobiq sho'rolar tuzumi davrida huquqiy madaniyat va huquqiy ongga bo'lgan munosabat, sho'ro jamiyatining axloqiy holatini ham eslab o'tishga to'g'ri keladi.

Aholi huquqiy madaniyatini tadqiq etishda jamiyat huquqiy madaniyatining quyidagi mazmunidan kelib chiqish lozim:

- jamiyat a'zolari tub manfaatini ifoda etgan, ilmiy asoslangan milliy g'oya va mafkurasini shakllantirish va kundalik hayot normalariga aylantirish;
- huquqiy hokimiyat, asosan, besh tamoyilga tayangan holda, jamiyat fuqarolari orasida olib

borayotgan siyosati haqida huquqiy bilimlarni shakllantirish.

Huquqiy madaniyatli bo'lish uchun qonun me'yorlarini bilish shart emas, unga rioya etish, qonun asosida ish tutish lozim. Ayrim huquq normalarini mukammal biladigan shaxslar huquqbuzarliklari uchun javobgarlikka tortiladilar. Ular huquqiy bilimli bo'lganlari bilan huquqiy madaniyatdan uzoqdirlar. Demak, huquqiy madaniyat shaxsning ongli ravishda huquqiy normalarga rioya qilishi, o'z xulq-atvori bilan o'rnatilgan tartib-qoidalarga bo'ysunishidir, desak bo'ladi. Ijtimoiy hayotni huquqiy tartib doirasida tutish to'g'risidagi tushunchalar tizimi ijtimoiy ong shakli – huquqiy ong bo'lib hisoblanadi. Shu bois millatlararo totuvlikni takomillashtirishning huquqiy asoslari ijtimoiy taraqqiyotning quyidagi mexanizmlari bilan bog'liq: jamiyat bir ijtimoiy-tarixiy bosqichdan ikkinchisiga o'tish jarayonida kishilarda shakllangan dunyoqarashning, ishongan ideallarga nisbatan qarashlarning o'zgarishi ishonchsizlik, mavhumlik holatlari kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Ana shunda xalqni bir maqsad yo'lida birlashtirish, har bir fuqaroning Vatan manfaatlarini uchun mas'uliyatni his qilib yashashiga, ularni bunyodkorlik ishlariga da'vat qilishda milliy g'oyaning ahamiyati beqiyosdir. Shuningdek, matbuot va televideniyaning huquqni muhofaza etuvchi organlar bilan hamkorligini yanada kuchaytirish, bu borada doimiy dasturlar va sahifalar tashkil etib, ularning muntazamligiga erishish lozim. Bugungi kunda huquqiy madaniyatga fuqarolik jamiyatining uzviy qismi, demokratiyaning asoslaridan biri sifatida qaralayotgani bejiz emas. Chunki mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi ham fuqarolik jamiyatini, demokratiyani shakllantirishdan iborat. Vatanimizning taraqqiyoti va islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan aholining huquqiy ongi hamda huquqiy madaniyati darajasiga bog'liqdir. Shaxsning siyosiy faolligi, uning chinakam fuqaroviy munosabati, demokratik islohotlarga intiluvchanligi belgilangan maqsadlarga tezroq erishishning muhim omilidir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Абдуллаев М.И. Правосознание и правовая культура. – Т.; СПб., 2004. – С. 88.
2. Алексеев С.С. Теория права. – М.: Бек, 1995. – С. 208.
3. Аграновская Ю.В. Правовая культура и обеспечение прав личности. – М.: Прогресс, 1988. – С. 18.
4. Бондаренко М.В. Правовая культура и правомерное поведение в современном российском обществе: дис. ... канд. юрид. наук. – М., 2002. – 159 с.
5. Глухарева Л.И. Права человека в системе теории права и государства: общетеоретические, философско-правовые и методологические проблемы: дис. ... д-ра юрид. наук. – М., 2004. – 417 с.
6. Ибраева А.С. Правовая культура Казахстана: проблемы формирования, факторы развития. – Алматы, 2004. – С. 71.
7. Комаров С.А., Малько А.В. Теория государства и права. – М., 2004. – С. 298.
8. Морозова Л.А. Теория государства и права: учебное пособие. – М.: Юрист, 2004. – С. 363.
9. Русинов Р.К. Правосознание и правовая культура // Теория государства и права. – М., 2006. – С. 134.
10. Сальников В.П. Правовая культура // Актуальные проблемы теории права. – Уфа, 1995. – С. 150–151.
11. Семитко А.П. Правовая культура социалистического общества: сущность, противоречия, прогресс. – Свердловск, 1990. – С. 14–19.
12. Toshev A.B. O'zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik. – Toshkent: Tasvir, 2022. – B. 7.
13. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi to'g'risida: 1997-yil 29-avgustdagi OMQ-466-1-son qaror. – URL: <https://lex.uz/ru/docs/-249352>